



AHOLI BANDLIGINI MEHNAT BOZORI O'ZGARISHLARIGA TA'SIRINI STATISTIK O'RGANISH

prof. Ayubjonov Abbas

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0003-2154-8971

abbasayubjanov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholi bandligi tushunchasi va iqtisodiy faoliyat kategoriyalarda tarkibiy o'zgarishlar o'rganib chiqilgan, hududlar bo'yicha rasmiy va norasmiy sektorlarda band aholining ko'rsatkichlari tahlil etilgan va ishsizlikka olib keladigan omillarni bartarafetish borasida tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bu omillar yig'indisining band aholi tuzilmasi va tarkibiga ta'siri insonning mehnatga qobiliyati va uning ishlab chiqarish jarayonidagi faol ishtiroki oqibati hosili bo'lib, mutaxassisligi va kasbi bilan belgilanadi.

Kalit so'zlar: rasmiy bandlik, norasmiy bandlik, aholi bandligi, ish bilan bandlik, mehnat, ijtimoiy himoya, bozor muvozanati, bandlik turlari, o'zini o'zi band qilish, mehnat resurslari, mehnat unumdorligi, ishsizlik.

СТАТИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ НА ИЗМЕНЕНИЯ НА РЫНКЕ ТРУДА

проф. Аюбжонов Аббас

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье исследовано понятие занятости населения и структурные изменения в категориях экономической деятельности, проанализированы показатели занятого населения в формальном и неформальном секторах по регионам, а также разработаны соответствующие предложения и рекомендации по устранению негативных факторов, приводящих к безработице. Влияние этих факторов на структуру и состав занятого населения является результатом трудоспособности человека и его активного участия в производственном процессе, что определяется его специализацией и профессией.

Ключевые слова: формальная занятость, неформальная занятость, занятость населения, занятость, труд, социальная защита, рыночное равновесие, виды занятости, самозанятость, трудовые ресурсы, производительность труда, безработица.

STATISTICAL STUDY OF THE INFLUENCE OF EMPLOYMENT OF THE POPULATION ON CHANGES IN THE LABOR MARKET

prof. **Ayubjonov Abbas**
Tashkent State University of Economics

Abstract. Paper researches the concept of employment and structural changes in categories of economic activity, analyzes the indicators of the employed population in the formal and informal sectors by regions, and develops appropriate proposals and recommendations for eliminating factors leading to unemployment. The influence of these factors on the structure and composition of the employed population is the result of a person's ability to work and his active participation in the production process, determined by his specialty and profession.

Keywords: formal employment, informal employment, population employment, employment, labor, social protection, market equilibrium, types of employment, self-employment, labor resources, labor productivity, unemployment.

Kirish.

Mamlakatimizda har yili aholi bandligini ta'minlash bo'yicha qator islohotlar amalga oshirib kelinmoqda, shuningdek bo'sh va kvotalanadigan ish o'rinlariga ishga joylashtirish mexanizmlari takomillashtirilmoqda, o'zini o'zi band qilishning samarali shakllarini rivojlantirish borasida ta'sirchan chora tadbirlar olib borilmoqda. O'z o'rnida, aholining ishchanlik faolligini va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirishga, aholining ijtimoiy zaif qatlamlari bandligini ta'minlashga, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan bir qator me'yoriy - huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Hozirgi kunda hududlardagi mehnat bozorida hali-hamon yuqori darajada keskinlik saqlanib qolmoqda, doimiy ish o'rinlarini tashkil etish, yoshlar, xotin-qizlar, kam ta'minlangan oilalar a'zolari bandligini, ayniqsa, qishloq joylarda ta'minlash, shuningdek, tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish bo'yicha ayrim muammolar mavjud. Ishga joylashtirish sohasida aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun kredit ajratish, maslahat-axborot berish xizmatlari va boshqa zarur xizmatlar darajasi pastligicha qolmoqda. Kadrlar ko'pincha iqtisodiyot tarmoqlarining joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini, ularning imkoniyatlari va resurslarini hisobga olmagan holda kasbga tayyorlanishi va qayta tayyorlanishi natijasida mehnat bozorida ayrim mutaxassisliklar bo'yicha malakali kadrlar taqchilligi kuzatilmoqda.

Bandlik - mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi, fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan va qonunlarga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyatdir. Bandlik xodimni ijtimoiy mehnat taqsimotiga asoslangan aniq mehnat kooperatsiyasiga jalb etish bo'yicha shaxslararo munosabatlarni ifoda etadi. Bandlik turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar va tashkilotlarda yollanib ishlash bilan cheklanmay, ayni paytda yakka tartibdagi tadbirkorlik, o'zini ish bilan mustaqil ta'minlash, shaxsiy tomorqa xo'jaligidagi ishlash, uy xo'jaligida band bo'lish va bolalarni parvarishlash bilan shug'ullanishni ham o'z ichiga oladi. Bandlik - bu ikki tomon o'rtasidagi munosabatlar, odatda ish haqi to'lanadigan shartnoma asosida bir tomon foyda olish uchun, notijorat tashkilot, kooperativ yoki boshqa tashkilot ish beruvchi, ikkinchisi esa xodimdir. Bandlik odatda mehnat sohasidagi me'yoriy-huquqiy xujjatlar asosida tartibga solinadi.

Jahon iqtisodiyotida aholi bandligi iqtisodiy taraqqiyot va barqaror rivojlanish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, iqtisodiy o'sish ish o'rinlari sonini ko'paytirish va mehnat unumdorligini oshirishga bo'lgan ehtiyojni qay darajada qondirishini baholash iqtisodiy rivojlanishni bandlik nuqtai nazaridan tahlil qilishning predmeti hisoblanadi.

Insonning hayot sifati va farovonligining eng muhim omillardan biri bu uning mehnat bozoridagi mavqei va tanlagan kasbda o'rni hisoblanadi. Ishchilar mehnat bozorining rasmiy

segmentidan o'z xohishiga qarshi chetlatilganda, mehnat bozori segmentlarga bo'linadi, ularning hayot sifati cheklanadi va ularning farovonligi kamayadi. Agar ular rasmiy yoki norasmiy mehnat munosabatlarini erkin tanlashlari mumkin bo'lsa, ya'ni mehnat bozori integratsiyalashgan bo'lsa, ularning farovonligi hatto norasmiy bandlik mavjud bo'lganda ham yuqori darajaga yetishi mumkin (Lehman va Pignatti, 2018).

O'zbekistonda bandlik siyosatini yanada takomillashtirish uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bandlikning mamlakat iqtisodiyotining makro, mezo va mikro darajadagi holati va rivojlanishini yaxlit ifodalaydigan, turli manbalardan olingan ko'rsatkichlarni mazmunan uyg'un guruhlarda birlashtiradigan, ma'lumotlar ishonchliligi va o'zaro qiyosiy nisbatining asosligini oshiradigan tizimni shakllantirish, hududlarni rivojlantirish to'g'risidagi qarorlarni shu asosda qabul qilish zarur. Bandlikni mamlakat va hududlar darajasida muvaffaqiyatli boshqarish uchun mehnat bozori ko'rsatkichlarining miqdoriy qonuniyatlarini ochishga imkon beradigan mezonlarni ishlab chiqish talab qilinadi. Ulardan bandlik masalalari bo'yicha iqtisodiy faoliyat turlaridan kelib chiqib, hududlar bo'yicha asosli qarorlar qabul qilishda foydalanish mehnat bozori faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aholi bandligini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha barcha darajalarda kompleks tahlil qilish va respublika hududlarida band aholi sonini taqsimlashning ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, ekonometrik modellarini tuzish dolzarb masala hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan ham "ish bilan bandlik" tushunchasining mazmun-mohiyatini yoritishga nisbatan yondashuvlar mavjud. Masalan, akademik Abdurahmonovning (2019) fikricha, "ish bilan bandlikning insonning Konstitutsiyada belgilab berilgan eng muhim huquqi – mehnat huquqi bilan mustahkam bog'liqdir".

Iqtisodchi olimlaridan Zokirova, Shoyusupova, Gabzalilova va Abdurahmonovalar ish bilan bandlikka makro va mikro darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning turli shakllarini o'zida mujassamlashtiradigan ijtimoiy umumiy iqtisodiy kategoriya sifatida quyidagicha ta'rif bergan: "jismoniy shaxslarning qonunga zid bo'lmagan, ularning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq, ularga ish haqi va mehnat daromadi keltiradigan faoliyati, shuningdek, bunda mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va taklifning miqdor hamda sifat jihatdan mutanosibligi darajasini aks ettiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning paydo bo'lishi" (Zokirova va boshq., 2011).

Iqtisodchi olim Xolmo'minov (1998) o'z ilmiy ishlanmalarida aholining oqilona ish bilan bandligi masalalariga alohida to'xtalib, aholining oqilona bandligi ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi bozor muvozanatiga erishishni bildiradi. Bunday holda ishsizlikning mumkin (tabiiy) darajasi vujudga keladi, deb ta'rif bergan.

Abduqodirov – Mehnat bozoridagi o'zgarishlar va bandlik darajasini tahlil qilishda keng tajribaga ega. U, ayniqsa, iqtisodiy inqirozlar va pandemiya kabi tashqi sharoitlarning mehnat bozoriga ta'sirini o'rganadi. Abduqodirovning fikricha, «Mehnat bozori va bandlik masalalari har bir iqtisodiy inqirozda yangi paradigmalarga ega bo'lishi mumkin, shuning uchun bu masalalarni doimiy ravishda o'rganib borish zarur» (O'lmasov va Vahobov, 2014).

Jalilov – O'zbekistonning mehnat bozoridagi demografik o'zgarishlar va ta'lim tizimining bandlikka ta'siri haqida ko'plab ilmiy ishlarni amalga oshirgan. U o'zining tadqiqotlarida ta'lim darajasining oshishi mehnat bozoridagi ish o'rinlari taqsimotini qanday o'zgartirishini ko'rsatadi. Jalilovning fikricha, «Ta'lim va malaka oshirilishi bandlikni yaxshilashga xizmat qiladi, ammo bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun iqtisodiy va siyosiy sharoitlarni yaxshilash zarur» (Pavlenkov, 2004).

Gauzner (1994) ish bilan bandlikni aholining eng muhim hayotiy ehtiyoji, deb tushunadi hamda bu birvaqtning o'zida jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchini tashkil etadi.

Starovoytova (2001) ish bilan bandlikni fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondiradigan va mamlakat qonunlarini buzmaydigan faoliyat, deb ta'riflaydi, bu aksariyat hollarda ishchilarga daromad olib keladi.

Klassik nazariya maktab vakili bo'lgan Smit (1993) «Xalqlar boyligi tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot» asarida ish bilan bandlik odamlarning faoliyati va intilishlari ularning shaxsiy iqtisodiy manfaatlari orqali belgilanishini ta'kidlaydi.

«Aholining ish bilan bandligi, foiz va pulning umumiy nazariyasi» nomli asar muallifi Keynsning (2007) fikricha, to'liq ish bilan bandlik – majburiy ishsizlik nolga teng bo'lgan holat. Bunga samarali talabni qo'shimcha kengaytirishga javoban ish bilan band bo'lganlar soni o'zgarmaganda erishiladi. Keyns g'oyasining asosini yalpi talabni – umumiy sotib olish layoqatini faollashtirish va rag'batlantirish, ishlab chiqarish, tovarlar va xizmatlar taklifiga ta'sir etish orqali ish bilan bandlik darajasini oshirish tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy mushohada, sintezlash, induksiya va deduksiya, empirik baholash, tizimli tahlil, statistik kuzatish, guruhlash, dinamika qatorlari, iqtisodiy indekslar, statistik jadval va grafiklar, iqtisodiy matematik modellash, kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Quyidagi ma'lumotlar asosida ta'kidlash mumkinki, 2020–2024 yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasi va uning hududlari bo'yicha bandlar sonidagi o'zgarishni tahliliy va tizimli tarzda ko'rib chiqamiz. 2020 yilda bandlar soni: 13 236,4 ming kishini tashkil etib, 2024 yilda: 14 260 ming kishini tashkil etgani holda 1 023,6 ming kishiga yoki 7,7% ga o'sgan.

Bu yiliga o'rtacha 1,87% atrofida o'sish degani bo'lib, iqtisodiyot bandlik yaratish imkoniyatiga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Ammo bu aholi sonining o'sishi sur'atlari (~2%/yil) bilan tenglashmoqda yoki past. Bu esa ishsizlik darajasi pasaymayotgan yoki barqaror turgan bo'lishi mumkinligini anglatadi.

Toshkent shahrida bandlar 13,4 % ga o'sgan bo'lib, bu o'sish asosan innovatsion sektor, xizmatlar sohasi, urbanizatsiya va migratsiya oqimi natijasida sodir bo'lgan. Qashqadaryo viloyatida esa 10,7 % neft-gaz sektori, qishloq xo'jaligi va infratuzilma loyihalari ta'siri katta. Andijon viloyatida 9,9 % avtosanoat, yirik ishlab chiqaruvchilar va ishchi kuchining yuqori zichligi oqibatida kuzatiladi. Xorazm viloyatida esa 9,3% qishloq xo'jaligida mevsimiy bandlik va chetdan yuborilgan mablag'larning investitsiyalashuvi hisobiga, Farg'ona viloyatida esa qishloq xo'jaligi va kichik biznes bilan shug'ulganuvchu tadbirkorlik subyektlari hisobiga amalga oshirilgan. Aksincha past o'sish kuzatilgan hududlarga Buxoro viloyati 2,5 % ishlab chiqarish salohiyati kam o'zgargan, yangi ish o'rinlari yaratilishi past bo'lganligi, Surxondaryo viloyati 3,4% chekka hududlarni sanoatlashtirish sustligi, ishchi kuchi boshqa hududlarga ko'chib yurishi sabab bo'lgan bo'lsa Sirdaryo (+5,7 %) viloyatiga respublikamizdagi ebg kichik hudud bo'lgani bois bandlik darajasini oshirish imkoniyaticheklanganligi isoh beriladi. Jizzax viloyatida 5,7 % qishloq xo'jaligidagi o'zgarish hisobiga mavjud o'sish kuzatilgan.

Iqtisodiy faol hududlar:

Toshkent shahri, Andijon, Qashqadaryo, Farg'ona – bu hududlar sanoat va xizmatlar sektori rivojlanayotgan, aholi zichligi yuqori va ishga yaroqli yoshlar salmog'i katta.

Urbanizatsiya va ichki migratsiya oqimi — ayniqsa Toshkent shahriga — bandlikdagi o'sishni tezlashtirgan asosiy omillardan.

Past o'sishga ega hududlar: Buxoro, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo — bu hududlarda yangi investitsiyalar va ishlab chiqarish klasterlari yetarli darajada kengaymagan.

Ko'plab aholisi mavsumiy yoki muhojirlik asosida ishlaydi, bu esa rasmiy bandlik ko'rsatkichlariga to'liq aks etmaydi. Ko'plab hududlarda bandlik soni o'ssa-da, bu noformal sektor hisobiga o'smoqda bo'lishi mumkin. Sifatli, barqaror va ijtimoiy kafolatlangan bandlik darajasi haqida chuqurroq tahlil talab etiladi. Ilmiy-tadqiqot xulosalari va tavsiyalar

Hududiy bandlik strategiyasi zarur – har bir viloyatga ixtisoslashtirilgan bandlik siyosati (sanoat, xizmatlar, agrobiznes). Yoshlar va ayollar bandligini rag'batlantirish – ayniqsa past o'sishga ega hududlarda. O'zini o'zi band qilganlar salohiyatini ro'yhatga olish va qo'llab-quvvatlash – rasmiy statistikada aks etmagan ish o'rinlarini tan olish muhim.

Iqtisodiy migratsiyani boshqarish – Toshkent va yirik shaharlarga bo'lgan migratsiya oqimi bandlikni haddan tashqari markazlashtirib yuboradi. (1-jadval).

1-jadval

Hududlar kesimida bandlar soni (ming kishi)

Hududlar	2020	2021	2022	2023	2024	2024 yil 2020 yilga nisbatan o'zgarishi	
						(+ ; -)	(%)
O'zbekiston Respublikasi	13236,4	13538,9	13706,2	14014,2	14260	1023,6	107,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	707,4	702,6	714,2	735,5	750,8	43,4	106,1
Andijon viloyati	1225,9	1264,3	1296,8	1329	1346,7	120,8	109,9
Buxoro viloyati	788	777,3	780,6	803,2	807,8	19,8	102,5
Jizzax viloyati	534,3	550,7	546,4	553,9	564,5	30,2	105,7
Qashqadaryo viloyati	1171	1202,5	1207,3	1220,1	1296,2	125,2	110,7
Navoiy viloyati	399,4	410,4	410,1	426,4	432,6	33,2	108,3
Namangan viloyati	1088,7	1104,8	1100,6	1129,1	1160,1	71,4	106,6
Samarqand viloyati	1418,3	1441,3	1479,8	1504,2	1521,4	103,1	107,3
Surxondaryo viloyati	985,5	1001,9	1006,3	1011,2	1018,7	33,2	103,4
Sirdaryo viloyati	332,2	334,1	335	338	351,1	18,9	105,7
Toshkent viloyati	1177,2	1222,1	1204,5	1234,9	1251,2	74	106,3
Farg'ona viloyati	1448,6	1483,3	1511,7	1555,4	1565,9	117,3	108,1
Xorazm viloyati	716,4	726,4	741,8	776,5	782,7	66,3	109,3
Toshkent shahri	1243,5	1317,2	1371,1	1396,8	1410,3	166,8	113,4

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Iqtisodiyotning rasmiy sektorida mehnat bilan band bo'lganlar soni davlat statistika hisoboti, davlat ijtimoiy sug'urta badali to'lovchilarning davlat soliq hisobi hamda O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Iqtisodiyotning rasmiy sektorida mehnat bilan band bo'lganlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- davlat ijtimoiy sug'urta badali to'lovi bo'yicha korxona, muassasa va tashkilotlarning soliq hisobotlarida qayd etilgan shaxslar;
- harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlari xodimlari hamda qonunchilikka muvofiq davlat ijtimoiy sug'urta badali to'lovidan ozod etilgan tashkilotlar xodimlari;
- yakka tartibdagi tadbirkorlar, dehqon xo'jaligi a'zolari, o'zini o'zi band qilgan shaxslar, qoramol o'stirish bilan band bo'lgan va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlarini sotish bilan band bo'lganlar hamda davlat ijtimoiy sug'urta badali to'lovini majburiy yoki ixtiyoriy ravishda amalga oshirayotgan shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda boshqa turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan band bo'lganlar.

2-jadval

Iqtisodiyotning davlat sektorida bandlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi
(ming kishi)

Hududlar	2020	2021	2022	2023	2024	2024-yil 2020 yilga nisbatan o'zgarishi	
						(+ ; -)	(%)
O'zbekiston Respublikasi	2483,1	2530,1	2540	2567,4	2592,6	109,5	104,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	150,6	151,8	155	159,6	160,2	9,6	106,4
Andijon viloyati	182,7	187,9	197,2	192,8	189,5	6,8	103,7
Buxoro viloyati	149,1	153,4	154,7	155,5	169,6	20,5	113,7
Jizzax viloyati	98	98,4	103,3	105,7	108,3	10,3	110,5
Qashqadaryo viloyati	210,1	214,7	217,3	220	230,6	20,5	109,8
Navoiy viloyati	168,5	171,7	121	117,1	118,2	-50,3	70,1
Namangan viloyati	167,1	164,1	169,9	173,1	170,6	3,5	102,1
Samarqand viloyati	217,5	221,6	235,6	234,8	236,9	19,4	108,9
Surxondaryo viloyati	182,2	186	197,6	201,5	200,4	18,2	110,0
Sirdaryo viloyati	68,2	73	76,2	77,5	76,9	8,7	112,8
Toshkent viloyati	203,4	218,5	217,1	219,4	220,4	17	108,4
Farg'ona viloyati	241,2	248,4	246,3	252	244	2,8	101,2
Xorazm viloyati	124,5	127	132,4	131,9	129,9	5,4	104,3
Toshkent shahri	320	313,6	316,4	326,5	337,1	17,1	105,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasi va uning hududlari bo'yicha 2020-2024 yillar davomida davlat sektorida bandlar sonining o'zgarishi keltirilgan. Jadvalni tahlil qilgan holda, hududlar bo'yicha davlat sektori bandligining o'zgarishini ko'rib chiqamiz. O'zbekiston Respublikasi Umumiy Ko'rsatkichlari (2020-2024):

2020 yil: 2483,1 ming kishi

2024 yil: 2592,6 ming kishi

O'sish: +109,5 ming kishi

O'sish sur'ati: +4,4%

O'zbekiston bo'yicha davlat sektorida bandlar soni yillar davomida barqaror o'sish ko'rsatmoqda.

2020-2024 yillar o'rtasidagi o'sish sur'ati faqat 4,4% ni tashkil etadi, bu nisbatan past o'sish ko'rsatkichi bo'lib, bandlikning sezilarli darajada oshmaganligini anglatadi. Shuningdek, bandlikning sekin o'sishining sababi, ehtimol, davlat sektoridagi ish o'rinlarining stabil va ko'p o'zgarmas bo'lishida yotadi.

Hududlar bo'yicha tahlil:

Eng yuqori o'sish sur'atlariga ega hududlar: Buxoro viloyati 13,7 %, Jizzax viloyati 10,5 %, Qashqadaryo viloyati 9,8 %, Sirdaryo viloyati 12,8 %

Eng past o'sish sur'atlari: Navoiy viloyati -29,9 %, Farg'ona viloyati 1,2 % ekanligi ko'rinadi.

Iqtisodiy faoliyat va davlat sektori o'sishi:

Umuman olganda, O'zbekistonda davlat sektori bandligida moddiy va ijtimoiy sektorlar rivojlanishi orqali o'sish kuzatilmoqda. Biroq, davlat sektori bandligi tez o'sayotgan sohalarga qaraganda pastroq sur'atda o'smoqda.

Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, va Sirdaryo viloyatlari davlat sektorida bandlar sonining o'sishini ko'rsatmoqda, bu yerda yangi loyihalar, davlat dasturlari va infratuzilma rivojlanmoqda.

Hududlar bo'yicha farqlar:

Navoiy viloyatida davlat sektori bandligining kamayishi salbiy tendensiyaning ko'rsatadi, bu hududda sanoat va davlat xizmatlarining pasayishi bilan bog'liq.

Farg'ona viloyatida davlat sektori bandligi past o'sadi, bu esa hududda sanoat va davlat xizmatlarining rivojlanmaganligini anglatadi.

Toshkent shahri va Toshkent viloyati ham davlat sektorida barqaror o'sishni ko'rsatmoqda, bu yerda xizmatlar va davlat sektori faoliyatining kengayishi kuzatilmoqda.

Davlat sektori bandligi va iqtisodiy rivojlanishning bir-biriga ta'siri:

Davlat sektori bandligidagi o'sish sanoat, qishloq xo'jaligi, va infratuzilma loyihalariga bog'liq. Bu o'sish, ayniqsa kichik viloyatlarda, yangi bandlik imkoniyatlari yaratadi.

Biroq, yuqori o'sishga ega bo'lgan hududlar ko'pincha xususiy sektorning yirik investitsiyalari va yangi loyihalariga tayanadi. Kelajakdagi tavsiyalar:

Hududlar bo'yicha ixtisoslashgan siyosat;

Navoiy viloyati kabi hududlarda davlat sektori bandligini oshirish uchun yangi investitsiya loyihalarini va sanoatni diversifikatsiya qilish zarur;

Sanoat va xizmatlar sektorini rivojlantirish;

Farg'ona va Navoiy viloyatlarida davlat sektori bandligini oshirish uchun xususiy sektorni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak.

Iqtisodiy o'sish va barqaror bandlikni rag'batlantirish;

Davlat sektori bandligining o'sishi bilan birga, iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash va barqaror ish o'rinlari yaratish uchun sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarini rivojlantirish lozim.

Iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorida yuqorida ko'rib chiqilgan bandlik turlari bilan bir qatorda aholini ish bilan ta'minlash sohasida iqtisodiyotning norasmiy sektoridagi faoliyat yangi hodisa hisoblanadi. XMT ta'rifiga muvofiq, me'yoriy-huquqiy bazalarda ro'yxatdan o'tkazilmagan, tartibga solinmagan yoki himoyalangan haq to'lanadigan ish, ya'ni, o'z-o'zini ish bilan ta'minlash va ish haqi to'lanadigan bandlik norasmiy bandlik hisoblanadi (ILO, 2015).

Iqtisodiyotning norasmiy sektorida mehnat bilan band bo'lganlar tarkibiga soliq organlarida hisobga turmagan quyidagi shaxslar kiradi:

- davlat ijtimoiy sug'urta badali to'lamasdan haqiqatda dehqon xo'jaliklarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan dehqon xo'jaliklari a'zolari;

- uyda pulli xizmatlar ko'rsatish bo'yicha mehnat munosabatlarini rasmiylashtirmagan tadbirkorlarda (enagalar, uy xizmatchilari, uy oshpazlari, avtomobil haydovchilar, qorovullar va boshqalar) yollanib ishlash bilan mustaqil band bo'lgan shaxslar;

- tadbirkorlarga yollanib ishlovchi shaxslar, shu jumladan, ularning oila a'zolari hamda davlat ijtimoiy sug'urta badali to'lovchisi va mehnat munosabatlari rasmiylashtirilmagan jismoniy shaxslar (quruvchilar, yuk tashuvchilar, farroshlar, ishchilar va boshqalar).

Iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlik mezonlariga quyidagilar kiradi:

- haftasiga kamida ikki soat iqtisodiyotning norasmiy sektorida haq to'lanadigan har qanday faoliyat turi bilan bandlik;

- bandlik muntazamligi – iqtisodiyotning norasmiy sektoridagi bandlikdan tushgan har haftalik daromadning mavjudligi;

- 10 sotix yer maydonida shaxsiy yordamchi xo'jaligini yuritish uchun foydalaniladigan uy xo'jaligi boshqaruvidagi yer maydonining mavjudligi.

Hozirda mamlakatimizda barcha sohalarida olib borilayotgan islohatlar natijasi rasmiy statistika ma'lumotlarida ham o'z aksini topmoqda. Jumladan, aholiga, tadbirkorlarga soliq yukining yengillashtirilib borilishi norasmiy ravishda faoliyat olib borayotgan shaxslarning rasmiy faoliyat yuritishga o'tayotganligini natijasi rasmiy sektorda bandlar sonining oshib borayotganligida ham namoyon bo'lmoqda.

Xo'jalik yuritishning yangi shakllarini tashkillashtirishda iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida aholining ish bilan bandligida jiddiy son va sifat o'zgarishlari dinamikasi ro'y berdi. Bu o'zgarishlar natijasida quyidagi tendensiyalar kuzatilganligini alohida ta'kidlash joiz:

birinchidan, davlat mulki ob'ektlari keskin qisqarishi hisobiga mulkchilik shakllari bo'yicha ish bilan xodimlarining qonuniy qayta taqsimlanishi;

ikkinchidan, ishchi kuchining moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan noishlab chiqarish sohalariga barqaror va tobora ortib borayotgan qayta taqsimlanishi ro'y berdi. Shuni aytish kifoyaki, nomoddiy ishlab chiqarish sohalaridagi yuridik shaxslarning miqdori sanoat va qishloq xo'jaligidagilar birga qo'shib hisoblanganidan ortiqdir;

uchinchidan, bozor o'zgarishlari ta'sirida ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishi va katta miqdordagi quvvatlar to'xtab qolganligi oqibatida mavjud ish joylari bilan xodimlarning kasbi, tajribasi va malakasi darajasiga muvofiq soni o'rtasidagi mutanosiblik buzildi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, 2010-2021 yillar oralig'ida bandlik ko'rsatkichlari biroz pasayishlar bilan bo'lsada doimiy ravishda ijobiy dinamikaga ega bo'lgan. Tendensiyaga e'tibor beradigan bo'lsak, 2020 yilda boshlangan Covid-19 pandemiyasi barcha ko'rsatkichlarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Ushbu salbiy oqibatlar bilan bog'liq jarayonlarning barvaqt oldini olish, vaziyatni har tomonlama chuqur tahlil qilib, bo'lajak xavf-xatarlarni, ular bilan bog'liq muammolarni oldindan prognoz qilish, ularning yechimiga aniq reja va choralar bilan tayyor turish tizimini yaratish maqsadga muvofiqdir (Farmon, 2022).

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi aholi bandligi tarkibida yuz berayotgan o'zgarishlar iqtisodiyot tarmoqlari tarkibini diversifikatsiya qilish borasida ko'rilgan chora-tadbirlar natijasidir. Shu bilan birga, yuqoridagi o'zgarishlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini tuzishda hisobga olinishi maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizda ish o'rinlarini tashkil etish sohasidagi davlat siyosati ishsizlikni qisqartirish va aholining ijtimoiy zarur mehnat bilan bandligini ko'paytirish bo'yicha quyidagi tadbirlarni e'tiborga olish zarur deb o'ylaymiz:

- davlat tomonidan iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalarni rag'batlantirish, bu esa yangi ish joylarini yaratishning asosiy sharti hisoblanadi;

- ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifning ham tarkibiy, ham kasbiy jihatdan balanslashuviga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- yangi ish joylari tashkil etilganda tadbirkorlarga va kichik biznes korxonalariga soliq imtiyozlari berish;

- o'z-o'zini ijtimoiy zarur mehnat bilan band qilishni kengroq rag'batlantirish;

- "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish kabi yangi ish joylarini yaratish va shunga tegishli ko'nikmalarga tayyorlash dasturlarni ishlab chiqish;

- kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikda investitsion faollikni rag'batlantirish asosida shart-sharoitlar yaratish, bu ko'plab mamlakatlarda aholi bandligini ta'minlashning muhim uslubi sifatida o'rganilmoqda;

- tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq ishsiz qolgan yoki ishidan ajralib qolish xavf solayotgan shaxslarning ish izlashlarini faollashtirish maqsadida kasbga o'qitish, qayta tayyorlash va ularga axborot-konsalting xizmatlarini ko'rsatish borasida ishlar olib borishdan iboratdir.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Abdurahmonov Q.X. (2019) *Mehnat iqtisodiyoti:nazariya va amaliyot. Darslik.T.:FAN, B.257.*

Farmon (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 28.01.2022 yildagi PF-60-son.*

Gauzner N. (1994) *Sovremennaya situatsiya na rossiyskom rynke truda i politika zanyatosti* / N.Gauzner // *Mirovaya ekonomika i mejdunarodnye otnosheniya*. – № 6. – S. 5–11.

Hartmut Lehmann, Norberto Pignatti. (2018) *Informal employment relationships and the labor market: Is there segmentation in Ukraine?* *Journal of Comparative Economics* Volume 46, Issue 3, September, Pages 838-857 <https://doi.org/10.1016/j.jce.2018.07.011>

ILO (2015) Chapter 4: *Who should be getting minimum wages* 4.5. *Informal economy workers* <https://www.ilo.org/global>

Keyns, Dj.M. (2007) *Obıaya teoriya zanyatost, protsenta i deneg. Izbrannoe/Dj.M.Keyns*. – M.:Ekmo.-960 s.

O'lmasov A., Vahobov A. (2014) *Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik*. – T.:Iqtisod-moliya,- 424 b.

Pavlenkov V.A. (2004) *Rыnok truda. Zanyatost. Bezrabortitsa*. M.: MGU,- 584 s.

Smit A. (1993) *Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov. V 2 t. M. Nauka*, –570 s

Starovoytova L.I. (2001) *Zanyatost naseleniya i yee regulirovanie* / L.I.Starovoytova, T.F.Zolotareva. – M.: Akademiya, – 190 s.

Xolmo'minov Sh.R. (1998) *Qishloq mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishini modellashtirish (Samarqand viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya*. – Toshkent, – B.57.

Zokirova N.Q, va boshqalar (2011) *Aholining ish bilan bandligini tartibga solish. (Nazariy va amaliy jihatlar). Monografiya*. – T.: Fan va texnologiya, – B.26.